



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– may holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **724 taga o'sdi**.
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **6.3 foizga ko'paygan**.
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **723 taga oshgan**.

2018 yilning yanvar-may oyida viloyatda 996 ta yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 335 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,2 % ga kamaygan hamda ularning soni 273 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 724 ta (7,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 10.2 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahrida (29,5 %), Karmanada (17,4%), Qiziltepa (11,1 %) va Xatirchi (10,3 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyun holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Navoiy viloyati	10482	100	10193	100
Navoiy shahar	3145	30,0	3003	29,5
Zarafshon shahar	643	6,1	617	6,1
tumanlar:				
Konimex	320	3,1	302	3,0
Qiziltepa	1165	11,1	1136	11,1
Navbahor	912	8,7	897	8,8
Karmana	1792	17,1	1772	17,4
Nurota	864	8,3	850	8,3
Tomdi	189	1,8	180	1,8
Uchquduq	391	3,7	388	3,8
Xatirchi	1061	10,1	1048	10,2


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat
ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 97,2 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 2,8 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 6,3 % ga oshgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 19,9 % savdoda, 15,9 % sanoatda, 8,9 % qurilishda, 11,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,0 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-may holatiga 996 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 50,7 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Navoiy shahrida (211 ta), Karmana (145 ta), Nurota (117 ta) va Xatirchi tumanlarida (115 ta) tashkil etilgan. Eng kam Tomdi (21 ta), Konimex (40 ta) hamda Uchquduq (52 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (138 ta), sanoatda (185 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (173 ta), qurilishda (104 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (89) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (16 ta), axborot va aloqada (24 ta) hamda tashish va saqlashda (30 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-may holatiga.	2018 yil yanvar-may holatiga.
Jami:	661	996
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	161	173
Sanoat	135	185
Qurilish	51	104
Savdo	124	138
Tashish va saqlash	36	30
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	80	89
Axborot va aloqa	9	24
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	12	16
Boshqa turlari	53	237

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi Tashish va saqlash (-2,6 f.p.), savdoda (-0,7 f.p.) va qurulishda (-0,2 f.p.) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (0,4 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (0,5 f.p) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (0,7 f.p.) hamda Axborot va aloqada (0,3 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.06.2018 y.	01.06.2017 y.	farqi (+-)
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	11,0	10,3	0,7
Sanoat	15,9	15,5	0,4
Savdo	19,9	20,6	-0,7
Tashish va saqlash	4,0	3,7	-2,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,5	7,0	0,5
Qurilish	8,9	9,1	-0,2
Axborot va aloqa	1,4	1,1	0,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,1	2,4	-0,3
Boshqa turlari	29,3	30,3	-1,0

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyun holatiga 8233 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3297 ta, oilaviy korxonalar – 602 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4092 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 19 tani va boshqalar 223 tani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 69 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 12 taga yoki 21,1 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 50 tasi qo'shma korxonalar, 19 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahar 24 ta (34,8 %), Karmana tumani 22 ta (31,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qiziltepa tumani 5 ta (7,2 %), Nurota tumani 5 ta (7,2 %), Navbahor tumani 4 ta (5,8 %) va Zarafshon shahar 3 ta (4,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyun holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 46 ta (66,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 9 ta (13,0 %), savdoda 5 ta (7,2 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 4 ta (5,8 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 3 ta (4,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta (1,5 %) va qurilishda 1 ta (1,5 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa qurilishda hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni



2018 yilning yanvar-may oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 9 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 2 ta, Eron Islom Respublikasi-1 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-1 ta va Janubiy Koreya Respublikasi– 1 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi –1 ta, Bolgariya Respublikasi-1 ta, yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-may holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 5 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

4


Sanoat

5

Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyun holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 8155 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyun holatiga qaraganda 13,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2523 tasi (30,9 %) Navoiy shahriga, 1523 tasi (18,7 %) Karmana, 910 tasi (11,2 %) Qiziltepa hamda 735 tasi (9,0 %) Xatirchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 8155 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 2019 tasi (24,8 %) – savdoda, 1601 tasi (19,6 %) - sanoatda, 905 tasi (11,1 %) - qurilishda, 1083 tasi (13,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 762 tasi (9,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 390 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 131 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 152 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1112 tasi (13,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-may holatiga 844 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 30,0 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy shahrida (184 ta), Nurota tumanida (117 ta), Karmana tumanida (108 ta) va Zarafshon shahrida (102 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchquduq (40 ta), Konimex (39 ta) hamda Tomdi (18 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (185 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (173 ta) savdoda (138 ta) va qurilishda (104 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (30 ta), axborot va aloqada (24 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (16 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyun holatiga 616 tani tashkil etib, ulardan 602 tasi yoki 97,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **41,0** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaranganda oilaviy korxonalarning 21,1 % yoki 127 tasi sanoat, 22,6 % yoki 136 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,3 % yoki 116 tasi savdo, 24,1 % yoki 145 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 7 tasi qurilish, 1,5 % yoki 9 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 6 tasi tashish va saqlash, 1,8 % yoki 11 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,4 % yoki 45 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni



Navoiy viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: **S.Doniyev**
(0371) 230-84-56



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

